



The Historiography of the Avesta: A Study Based on Research by Azerbaijani Scholars

Dilovar NASRIDDINOV¹

Termez State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
15 April 2025
Accepted 25 April 2025
Available online
25 May 2025

Keywords:

The Avesta book,
"memory sheets,"
"good thought,
good word,
good deed,"
analysis of works by A.O.
Makovelskiy,
F. Gosimzoda and T. Hojiyev,
I. Aliyev,
A. Foziliy and other scholars,
ancient ruins of
Antrapotepa.

ABSTRACT

This article chronologically examines the analysis of research conducted by Azerbaijani scholars on the study of the Avesta book, presenting general views on Zoroastrianism. The authors provide their conclusions regarding some issues related to the sacred "Avesta" book in their works.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4/S-pp432-438>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Avesto kitobi tarixshunosligi (Ozarbayjon olimlari tadqiqotlari misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Avesto kitobi,
"xotira varaqlari",
"ezgu fikr,
ezgu so'z ezgu amal",
A.O.Makovelskiy,
F.G'osimzoda va T.Hojiyev,
I. Aliyev,
A.Foziliy va boshqa olimlar
asarlari tahlili,
Antrapotepa qadimiy
xarobasi.

Ushbu maqolada "Avesto" kitobini o'rganishda Ozarbayjonlik olimlarning tadqiqotlari tahlili xronologik tarzda o'rganilgan bo'lib, Zardushtiylik dinidagi umumiy qarashlar bayon etilgan. Mualliflar o'z asarlarida muqaddas "Avesto" kitobidagi ba'zi muammolarga o'z xulosalari keltirilgan.

¹ Master degree student, Termez State University

Историография книги Авеста (на примере исследований азербайджанских ученых)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

книга Авеста,
"листы памяти",
"благая мысль,
благое слово,
благое дело",
анализ трудов А.О.
Маковельского,
Ф. Гасымзоды и Т.
Ходжиева,
И. Алиева,
А. Фазили и других
ученых,
древние руины
Антрапотепе.

В данной статье в хронологическом порядке анализируются исследования азербайджанских ученых по изучению книги "Авеста", излагаются общие представления в зороастрийской религии. Авторы в своих трудах приводят собственные выводы касательно некоторых проблем, связанных со священной книгой "Авеста".

"Avesto" kitobi haqida ko'plab xorijiy olimlar tomonidan asarlar yozilgan bo'lib, umumiy savollarga yechimlar topishga harakat qilingan. Ana shunday olimlar misolida ozarbayjonlik olimlarni misol keltirishimiz mumkin. Ushbu olimlar o'z asarlarida oldingi davr mualliflari asarlaridan foydalanib, o'z xulosalarini kitoblarida aks ettirishgan. Mualliflar o'z kitoblarida "Avesto" kitobiga umumiy sharhlar, Zardushtiylik dinining paydo bo'lish omillari, kitobdagi ijtimoiy fikrlar va tahlillar qatorida ba'zi xatolar (Zardushtiylikning vatani sifatida Ozarbayjon hududlari deb hisoblash) ham keltirilgan.

Ozarbayjon olimlari tomonidan Zardushtiylik diniga qiziqish va "Avesto" kitoblari tahlili o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab rivojlana boshladi. 1950-yillarning boshlarida A.O.Makovelskiyning bir nechta maqolalari e'lon qilingan bo'lib, ular uning "Avesto" nomli umumlashtiruvchi monografiyasiga kiritilgan. Bu monografiya ozarbayjon tarixshunosligida Avestoni ilmiy tushunishga bo'lgan birinchi urinish edi[1]. Avvalo, muallif tarixshunoslik sharhini amalga oshiradi va Avestoni o'rganishdagi asosiy yo'nalishlarni tahlil qiladi. So'ngra Avesto tarkibi, uning tili avesto alifbosi ko'rib chiqiladi, Avesto kitoblari tahlil qilinadi, Gatlar va Yasnaning ba'zi boblari qisqacha mazmuni keltiriladi[2]. A.O.Makovelskiy Avestoning "g'arbiy" va "sharqiy" kelib chiqishi to'g'risida mualliflarning fikrlarini tahlil qiladi, Avestoning ayrim qismlarini tuzishning turli davrlarga oidligi va ularning Kichik Osiyo, Ozarbayjon, Eron va O'rta Osiyo hududlarida shakllangan bo'lishi mumkinligi haqida to'xtaladi. So'ngra muallif asosan Videvdatning "Geografik poema"si materiallari asosida Avestoning tarixiy geografiyasini qayta tiklashga harakat qiladi.

U "Avesto" xalqining afsonaviy vatanidan tarqalishi tasvirlanganini, Videvdatda ko'rsatilgan hududlar esa bu xalqning vaqtinchalik "to'xtash joylari" ekanligini taxmin qiladi. Ba'zi Avesto toponimlarini asossiz ravishda Ozarbayjon, aniqrog'i Midiya va Atropatena bilan bog'laydi.

O.Makovelskiy esa Yasna va Yashtlarning "xotira varaqalari" deb ataluvchi, Zardusht qarindoshlari va birinchi izdoshlari, shuningdek "birinchi inson" Gayomartdan boshlab afsonaviy shohlar ro'yxati keltirilgan qismlarini tahlil qiladi

A.O.Makovelskiy avesto jamiyatining iqtisodiy turmushi va ijtimoiy tuzilishini qayta tiklash jarayonida, ayniqsa mag'larning kelib chiqishi va ularning ijtimoiy hamda diniy hayotdagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi.

Muallif Avestoga singib ketgan dualizmni ta'kidlab, axloq va huquqiy g'oyalarni tahlil qiladi, mashhur zardusht uchligini - "ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal"ni qayd etadi, Zardushtning diniy faoliyatini dastlabki ko'pxudolikni yakkaxudolikka aylantirish bo'yicha islohotchilik deb hisoblaydi, Ahmoniylar dinini esa "Zardushtsiz zardushtiylik" deb ataydi[3].

Muallif Zardusht tarixiy shaxs bo'lgan degan xulosaga keladi, biroq uning miloddan avvalgi VI asrda yashagani va hatto fors shohi Kambizdan nafratlanganini taxmin qiladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, avesto atamalarining, toponimlari va atoqli otlarining ko'plab noto'g'ri talqinlari aynan uning asari orqali Ozarbayjon tarixshunosligiga Avesto va zardushtiylik bo'yicha kirib kelgan.

I. Aliyev "Midiya tarixi" asarida Avestoning Ozarbayjonda yaratilishi mumkin emasligi haqidagi nuqtai nazarga moyil bo'lgan. Uning fikricha, Avestoda tasvirlangan chorvador-dehqonchilik turmush tarzini yurituvchi va asta-sekin o'troqlashayotgan qabilalarning hayot tarzi tasvirlangan.

I. Aliyevning fikricha, dastlabki avesta ta'limotlarining vatanini eng yaxshi holatda faqat sharqiy midiyalik qabilalar yashaydigan hududlardagina izlash mumkin. Muallif Avestoni ahmoniylardan oldingi davrga tegishli deb hisoblaydi. I. Aliyev Zardusht Sharqiy Midiya viloyati (shahri) Ragadan kelib chiqqan deb taxmin qiladi [4].

F.G'osimzoda va T.Hojiyevning "Avestodan hozirgi kungacha" nomli sharh risolasida mualliflar ta'kidlaydilar, bir necha asrlar davomida (miloddan avvalgi IX asrdan VI asrgacha) tuzilgan Avesto Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining yodgorligi hisoblanadi. Ular qayd etadilar, rivoyatlarga ko'ra 21 kitobdan iborat bo'lgan Avestodan Iskandar Makedoniydan keyin faqat uchta kitob, arab istilosidan so'ng esa undan ham kamrog'i saqlanib qolgan. Ularning fikricha, Gatlarining muallifi miloddan avvalgi VI asrda yashagan midiyalik Spitama bo'lib, u Zardusht payg'ambarlaridan biri edi. Mualliflar Beruniyga (973-1048) tayanib, Zardushtning asli Ozarbayjondan ekanligi, shuningdek, Avestoda Kaspiy dengizi va ozarbayjonliklar yashaydigan hududlar tilga olinganini ta'kidlaydilar. So'ngra mualliflar Avesto falsafasi dualistik xarakterga ega ekanligini va ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurashga asoslanganini yozadilar. Ularning fikricha, oliy xudo Hurmuz, yovuzlik xudosi esa Axriman bo'lib, bu ismlar Ozarbayjon va Eronda erkaklar ismi sifatida keng tarqalgan. Mualliflar zardushtiylik uchligini - "ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal"ni, erkak va ayolning qalb go'zalligi va pokligining belgilarini, axloqiy-estetik ideallarni ta'kidlab, zardushtiylarning musiqasi, qo'shiqlari va bayramlarini o'rganadilar.[5]

S.Qosimovanning "Janubiy Ozarbayjon III-VII asrlarda" nomli monografiyasida ta'kidlanishicha, Avesto ko'p qatlamli va turli davrlarga oid yodgorlik bo'lib, uning eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri - I ming yillikning boshlarida shakllangan. Tadqiqotchi Ahmoniylar, Parfiyaliklar va hatto ilk Sosoniylar davrida Avestoning (yoki uning alohida qismlarining) yozilgani haqida ishonchli ma'lumotlar yo'qligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, avesto alifbosi kitobiy pahlaviy yozuvining bir turi asosida paydo bo'lgani va bu yozuv IV asr oxiri - V asr boshlaridan oldin mavjud bo'lmagani sababli, faqat

IV-V asrlar chegarasida bu alifbo bilan yozilgani haqida ishonch bilan gapirish mumkin. So'ngra muallif Denkart, Bundahishn kabi pahlaviy zardushtiylik asarlarini tahlil qiladi. S.Yu.Qosimova an'anaga ko'ra Zardusht (Zoroastr) va'zi Ozarbayjon bilan bog'lanishini qayd etadi. Uningcha, Got ta'limotini Zardushtgacha bo'lgan "xalq dini" bilan murosali birlashtirish natijasida yuzaga kelgan ilk zardushtiylik transformatsiyasi ellinizm davrida va Parfiya podsholigi davrida davom etgan. S.Yu.Qosimova aynan Sosoniylar davrida "kichik avesto" zardushtiylik dogmatik davlat diniga aylanib, bosib olingan hududlarga zo'rlik bilan joriy qilinganini va boshqa din hamda mazhablarga ochiqdan-ochiq dushmanlik qilganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, zardushtiylik qonunlari matnlarining, ularning o'rta fors tilidagi tarjimai va sharhlarining hamda boshqa ko'plab pahlaviy diniy asarlarining uzoq vaqt og'zaki an'ana sifatida mavjud bo'lib, asosan VI asrdan boshlab yozma ravishda qayd etilishi va kodifikatsiyasi e'tiqod tizimi konsepsiyasi va marosim qoidalarining bir xil bo'lmasligiga olib kelgan. Uningcha, Ozarbayjon Adurgushnasp ibodatxonasi bilan zardushtiylik kohinligining asosiy tayanchi bo'lgan. S.Yu.Qosimova davlat olov kulti Sosoniylar zardushtiylik cherkovining islohotidan ancha oldin mavjud bo'lganini ta'kidlaydi. U Adurgushnasp olov ibodatxonasini hozirgi Taxti Sulaymon yodgorligi o'rnidagi Shiz shahrida joylashgan deb hisoblaydi. Muallif bu ibodatxonaning batafsil tavsifini arab mualliflari va Nizomiy ma'lumotlariga hamda arxeologik qazishmalar natijalariga asoslanib keltiradi. So'ngra u Midiya mag'larining zardushtiylikdagi rolini, shuningdek ilk yoki "kichik avesto" deb ataladigan zardushtiylikning o'zgarishini tahlil qiladi.

S.Yu.Qosimova Adurbadagandagi Sosoniylar davri zardushtiylikning pozitsiyalarini batafsil o'rganadi. Muallif Adurgushnasp ibodatxonasi zardushtiylik kohinligining asosiy tayanchi bo'lganini ta'kidlaydi, shuningdek Avestoning tuzilgan joyini aniqlash muammosiga to'xtaladi. S.Yu.Qosimova Avesto, Sosoniylar Sudnomasi va o'rta asr zardushtiylik asarlarining olov ibodatxonalari haqidagi ma'lumotlarini ko'rib chiqadi. So'ngra muallif arab tarixchilari va geograflari asarlarini, shuningdek Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonidagi Adurxushnasp ibodatxonasi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi va ularni Shizdagi arxeologik qazishmalar natijalari bilan taqqoslaydi.[6] Ta'kidlash joizki, S.Yu.Qosimovaning monografiyasida manbalarga asoslanib Janubiy Ozarbayjondagi zardushtiylik muammolari ilk bor batafsil tadqiq etilgan.

1985-yilda M.Dadashzodaning "O'rta asrlarda ozarbayjon xalqining ma'naviy madaniyati" kitobi nashr etildi. U zardushtiylikning Sosoniylar davlatining rasmiy dini sifatida e'lon qilinishi Ozarbayjonning mavqeini sezilarli darajada oshirganini ta'kidlaydi. Muallifning ko'rsatishicha, o'rta asr arab mualliflari Balazuriy, Yakubiy, Mas'udiy, Tabariy, Ibn Balxiy, Ibn Xurdodbeh, Ibn Miskaveyx, Yoqut Hamaviy va boshqalar Ozarbayjonnin zardushtiylikning vatani deb hisoblashgan. M.Dadashzoda Zardusht Midiya davlati vujudga kelishidan oldin yashagan deb taxmin qiladi. Muallif "Avesto" tilining O'rta Osiyo va Eronning sharqiy xalqlari tillaridan tubdan farq qilishini ta'kidlaydi. U "Avesto" tilini Ozarbayjonga nisbat beradi. M.Dadashzoda Shizdagi olov ibodatxonasidan tashqari, Ardabil, Tabriz, Boku va boshqa shaharlarda ham ko'plab olov ibodatxonalari mavjud bo'lganini yozadi. So'ngra muallif ko'p sonli olov ibodatxonalarining qurilishi kohinlar ko'payishiga hamda Sosoniylar davlati tarixining ayrim davrlarida ularning roli va hokimiyatining kuchayishiga yordam berganini ta'kidlaydi.

M. Dadashzodaning fikricha, Hamadondagi mashhur olov ibodatxonalaridan biri Midiya shohi Kiaksar davrida ham mavjud bo'lgan. Muallif "yangi avesta" taqvimini batafsil tahlil qiladi. U Daitiyani Araks daryosi bilan izohlaydi. M.Dadashzode zardushtiylik bilan bog'liq bo'lgan va ozarbayjon madaniyatiga alohida ta'sir ko'rsatgan Navro'z, Mehrigan, Sade va Abrizagan xalq bayramlarini batafsil tasvirlaydi[7]. Bu, ehtimol, muallifning zardushtiylikni tadqiq etishga qo'shgan eng qimmatli hissasidir.

I. Aliyevning "Atropagen tarixi ocherki" asarida zardusht yozuvlari arshakiylardan ancha oldin mavjud bo'lganligi ta'kidlanadi. Muallif fikricha, "Avesto" dastlab Parfiya Arshakiylari davrida, so'ngra Sosoniylar davrida bir necha marta - III, IV, VI va VII asrlarda kodifikatsiya qilingan. I.Aliyev bizgacha yetib kelgan "Avesto"ning tuzilishini batafsil ko'rib chiqadi. Keyin muallif zardushtiylikning diniy-falsafiy tizimini tadqiq etadi. I.Aliyev zardushtiylik Eronning g'arbiy viloyatlarida, shuningdek, Janubiy Ozarbayjonda tarqala boshlagan, degan xulosaga keladi. Bu yerlarda miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida unga o'xshash e'tiqodlar - mazdaparastlik, dualizm, olov kulti mavjud bo'lgan. Muallif Zardushtning vatanini Ozarbayjonda joylashtirishning sababini bu yerda Adurgushnasp olov ibodatxonasi mavjudligi bilan izohlaydi. Sosoniy shohlari taxtga o'tirishda bu ibodatxonaga ziyorat qilishlari kerak bo'lgan Biroq I.Aliyevning Videvdat (muallifning fikricha, "aniqrog'i Proto-Videvdat") g'arbiy eron viloyatlarida paydo bo'lgani va uni faqat midiyalik sehrgarlar tuzgan bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari surgan. I.Aliyevning fikriga ko'ra, miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida G'arbiy Midiyada turli mazdaviylik kultlari keng tarqalgan degan umumiy xulosaga kelgan.[8]

1990-yilda S.Ashurbeylining "O'rta asrlarda Ozarbayjonning Hindiston bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari" asari nashr etildi. Unda muallif yana Suraxanidagi Atyashgah ibodatxonasini keng manbalar asosida batafsil o'rganishga qaytadi. Ushbu asarda muallif Ozarbayjonda olov sig'inishi va zardushtiylikning tarqalishi haqida guvohlik beruvchi arxeologik ma'lumotlarni tadqiq etadi, shuningdek, Suraxanidagi Atyashgah olov ibodatxonasidagi yozuvlarning tarjimalarini keltiradi[9]

A. Foziliyning "Atropatena (miloddan avvalgi IV asr - milodiy VII asr)" monografiyasida muallif Atropatena[10] Fraaspasini parfiylar davrida qurilgan Taxti Sulaymon bilan bir degan xulosaga keladi, bu yerda Anaxita ibodatxonasi joylashgan deb hisoblaydi [8, 156-158], sehrgarlar diniy vazifalarni bajarish bilan bir qatorda, yuqori martabali ota-onalarning farzandlarini tarbiyalash, tibbiyot, astrologiya hamda tarixiy solnomalar tuzish bilan shug'ullanganligini ta'kidlaydi. A.Fozili zardushtiylik dinining asoslarini ko'rib chiqadi, shuningdek, antik mualliflarning xabarlarini va pahlaviy asarlarida Zardusht va uning dini haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. Muallif Avestoning tuzilishini o'rganar ekan, uning yaratilish vaqti va joyi muammosiga to'xtaladi, Avestoni biror bir xalqning madaniy yodgorligi deb hisoblash noto'g'ri ekanligini, Avesto va zardushtiylik mafkurasi Ozarbayjon, Eron, Kichik va O'rta Osiyoda keng hududda tarqalganligini ta'kidlaydi. Muallif Ozarbayjon hududida zardushtiylikning tarqalishi davrida Midiya kohinlarining diniy ta'limotlari zardushtiylikka ta'sir ko'rsatganini qayd etadi, hatto Ahamoniylar davridan boshlab zardushtiylik Ozarbayjon, Eron va O'rta Osiyoning qadimgi qabilalari dini bo'lganligini ko'rsatadi, Sosoniylar davrida Atropatenaning zardushtiylikning g'oyaviy va diniy markaziga aylanganligini ta'kidlaydi. A.Fozilining fikricha, dastlab Avesto parfiya tilida tuzilgan. Ta'kidlash joizki, A.Fozilining yuqoridagi fikrlarida qiziqarli kuzatishlar va xulosalar bilan bir qatorda ko'plab noto'g'ri

talqinlar va xatolar (ayniqsa atoqli otlar, joy nomlari, shuningdek pahlaviy asarlari nomlarini berishda) ham uchraydi.[11]

1996-yilda B.Shofizodaning "Zardusht, Avesto, Ozarbayjon..." nomli kitobi nashr etildi. Kirish qismida muallif "Avesto" tilining prototurk tili, ya'ni ozarbayjon turkiy tilining eng qadimgi shakli ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Avesto turkiy xalqlarning eng qadimgi til yodgorligidir. Shofizoda "Avesto" alifbosini alban va O'rxun-Enasoy alifbosi bilan qiyoslaydi. Shundan so'ng muallif antik davr faylasuflari va XVIII-XVIII asrlar mualliflarining fikrlarini "tahlil" qiladi. Zardusht bundan 9-10 ming yil muqaddam yashagan degan xulosaga keladi. So'ngra Firdavsiy, Nizomiy, Fuzuliy dostonlaridagi zardushtiylik haqidagi ma'lumotlarga to'xtaladi.[12]

2004-yilda R.Melikovning "Avesto va uni o'rganish tarixi haqida" nomli maqolasi e'lon qilindi. Unda Avestoning tarkibi, uning yaratilish vaqti va kodifikatsiya joyi muammolari, hamda uni o'rganish tarixi ko'rib chiqiladi. Maqolaga "Geografik doston" deb ataluvchi (Videvdatning I fargardi) avestocha matnning tarjimai ilova qilingan bo'lib, u Avestoning yaratilishi mumkin bo'lgan geografik chegaralarni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu yili E. Alibeyzodaning "Avesto - ozarbayjon xalqining ma'naviy madaniyati tarixi" kitobi nashr etildi [3]. Kitobda keltirilgan "Avesto"dan olingan parchalarning ozarbayjon tiliga rus tiliga qilingan turli tarjimalaridan amalga oshirilgan. Muallif yana Zardushtdan keyin "Avesto" saqlanib qolganini va bizgacha qadimgi fors-pahlaviy tilida yetib kelganini ta'kidlaydi. Aslida, yodgorlikning tili na qadimgi fors, na pahlaviy tilidir. Ilmda u "Avesto" tili deb atalib, o'ziga xos qadimgi eroniy til hisoblanadi. E. Alibeyzoda "Avesto" aynan Ozarbayjonda tuzilgan va Zaratushtra (Zardusht) kelib chiqishiga ko'ra turkiy bo'lgan deb hisoblaydi, o'z fikrini XIX asr va XX asr boshlaridagi tarixchilarning asarlariga havolalar bilan asoslaydi. Muallif shumer mifologiyasidagi otashparastlik elementlarini zardushtiylik bilan taqqoslab, otashparastlik va zardushtiylik tushunchalarini aralashtirib yuboradi.[13]

Avesto alifbosi haqidagi ma'lumotlar, Avesto yozilgan ikki lahjaning til tarkibi tahlili, ushbu yozma yodgorlikning yaratilish joyi va kodifikatsiya bosqichlari haqidagi qisqacha ma'lumotlar R. Melikovning "Avesto tili"[14] maqolasida keltirilgan. 2008-yilda R. Melikovning "Avesto afsonasidagi Yima" [31] maqolasi nashr etildi. Unga Videvdatning bir bobini avesto tilidan tarjimai ilova qilingan. So'zboshida Yima haqidagi avesto va zardushtiylik an'analarning turli jihatlari tahlil qilingan. Videvdatning ikkinchi fargardi tarjimasida birinchi yer hukmdori – qahramon Yima haqida hikoya qilinadi[15]. U keyinchalik Sharqda, jumladan Ozarbayjon an'anasida ham Jamshid nomi bilan tanilgan.

2012-2013-yillarda R.S.Melikovning "Ozarbayjonda zardushtiylik tarixidan" va "Ozarbayjon folklorida avesto mifologik obrazlari" maqolalari nashr etildi. "Ozarbayjon qadimgi tarixi bo'yicha yozma manbalar" xrestomatiyasida R.S. Melikov Avesto haqida qisqacha ma'lumot berdi va Yasnaning bir parchasi, shuningdek Videvdatning I va II fargardlarini ozarbayjon tiliga tarjima qildi.

2014-yilda E.Kerimov va P.Ahanchining "Zardushtiylik va hinduiylik kontekstida otashparastlik" kitobi nashr etildi, bu kitob batafsil etnografik sharhni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, XVII-XIX asrlardagi sayohatchilar va tadqiqotchilar tomonidan to'plangan, hozirda bibliografik nodir hisoblanadigan keng qamrovli tarixiy-etnografik materiallarning ilmiy muomalaga kiritilishi nihoyatda qimmatlidir. Kitobga ilova sifatida

A.B.Xmelnikovning "Suraxani qishlog'idagi otashparastlar ibodatxonasi" albomidan olingan rasmlar ishlatilgan.

2015-yilda A.Alimirzoyevning "Dastlabki otashparastlar klinopis manbalarida" nomli maqolasi chop etilgan. Muallif fikricha, otashparastlar haqidagi ilk tarixiy ma'lumotlar miloddan avvalgi 509-494 yillarda elam mixxati bilan tuzilgan xo'jalik matnlarida qayd etilgan. U otashparastlarning uchta kohinlik unvonini qayd etgan[16].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маковельский А.О. "Авеста". Баку, 1960.
2. O`sha kitob 25-28-betlar
3. O`sha kitob 95-133-betlar
4. Алиев И. История Мидии. Баку, 1960.
5. Qasımzadə F., Hacıyev T. Avestadan bu günə də k, Bakı, 1982.
6. Касумова С.Ю. Южный Азербайджан в III-VII вв. Баку, 1983
7. Dadaşzadə M. Azə rbaycan xalqının orta ə sr mə nə vi mə də niyyə ti (tarixi-etnoqrafik tə dqiqat). Bakı, 1985.
8. Алиев И. Очерк истории Атропатены. Баку, 1989
9. Ашурбейли С. Экономические и культурные связи Азербайджана с Индией в средние века. Баку
10. Hozirgi Eronning shimoli-g'arbida joylashgan tarixiy viloyat va qadimgi davlat. U taxminan Eron va hozirgi Ozarbayjon Respublikasining janubi-sharqiy hududlari (Kura va Araks daryolarining janubida) bilan mos keladi
11. Fazili A. Atropatena (er. ə v. IV - er. VII ə sri). Bakı, 1992
12. Şə fizadə B. Zə rdüşt, Avesta, Azə rbaycan... Bakı, 1996.
13. Ə libə yzadə E. «Avesta» Azə rbaycan xalqının mə nə vi mə də niyyə t tarixidir. Bak: 2005.
14. Меликов Р. Язык Авесты // "Tarix və onun problemlə ri". Bakı, 2007,
15. Меликов Р. Авестийский миф о Йиме // "Tarix və onun problemlə ri". Bakı, 2008
16. Ə limirzə yev A. İlk atə şpə rə stlə r mixi yazılı mə nbə lə rdə // İlahiyyat fakültə sinin elm: mə cmüə si, № 23. Bakı Dövlə t Universiteti, 2015